

4. Авлокулов. А. З. Молиявий натижалар ҳисоби ва аудити методологиясини таомиллаштириши. диссертацияси автореферати. 2019й.
5. Соколов Я.В. Финансовый результат как цель бухгалтерского учета / Я.В.Соколов, М.Л.Пятов. //Бухгалтерский учет. – 2007. – № 21. – С. 56-59.
6. Салова А.А. Понятие, сущность и значение финансового результата предприятия. //Альманах современной науки и образования, № 7 (120) 2017.
7. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия: учебник / Савицкая Г.В. – М.: Инфра-М, 2013. – 384 с.
8. Пощерстник Н.В. Бухгалтерский учет на современном предприятии: учебно-практическое пособие. – М.: Проспект, 2011. -560 с
9. Каримов А.А., Исломов Ф.Р., Авлокулов А.З. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. – Т.: "Шарқ" НМАК, 2004.-592 б.
10. Сметанко А.В., Коваленко А.С., Шарапова И.С., Сорокина Е.С., Бурдюг Н.В. Молиявий натижалар назарияси.Ўқув қўлланма, 2014 й.
11. Базилинська О.Я. Фінансовий учет: теорія та практика : [науч. пособ.] / О.Я. Базилинська ; 2-ге вид. – К.: Центр учебной литературы, 2011. – 398 с. 12. Скалюк Р.В. Сущность и значение финансовых результатов в системе развития хозяйственной деятельности промышленных предприятий. http://www.nbuu.gov.ua/portal/natural/npkntu_e/2010_18_1/stat_18_1/21.pdf
13. Азимова Ф.П. Тўқимачилик саноати корхоналари фаолияти самарадорлигини бошқаришни таомиллаштириши. Монография. –Т.: "Factor book" нашариёти, 2022й. 28 июнь."
14. Плахова Л.В., Анурена Т.М., Легостаева С.А. и др. Основы менеджмента: Учеб.пособие. – М.: КНОРУС, 2009. – 496 с.
15. "Ўзтўқимачиликсаноат" уюшмаси таркибидаги корхоналар маълумотларидан фойдаланилган. 2018-2021й.



QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIGA XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKLARDA BUXGALTERIYA HISOBINING NAZARIY- USLUBIY ASOSLARI

doi: https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a12

Turkmanov A'zam Saydullayevich -
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo'jaligi faoliyatida xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning ahamiyati hamda buxgalteriya hisobining nazariy-uslubiy asoslari, qishloq xo'jaligi faoliyatida xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: agroservis, xizmat ko'rsatuvchi subyekt, buxgalteriya hisobi, boshqaruv hisobi, infratuzilma, hisob siyosati, xarajatlar hisobi.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ БУХГАЛЬТЕРСКОГО УЧЕТА В СУБЪЕКТАХ ОБСЛУЖИВАНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Туркманов Аззам Сайдуллаевич -
*Ташкентский государственный экономический университет,
независимый исследователь*

Аннотация. В статье исследована роль хозяйствующих субъектов, оказывающих услуги в сельскохозяйственной деятельности, а также теоретико-методические основы бухгалтерского учета, особенности учета субъектов, оказывающих услуги в сельскохозяйственной деятельности.

Ключевые слова: агроСервис, хозяйствующий субъект, бухгалтерский учет, управленический учет, инфраструктура, учетная политика, учет затрат.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ACCOUNTING IN THE SERVICE SUBJECTS OF AGRICULTURAL ENTERPRISES

Turkmenov Azam Saidullayevich -
*Tashkent State University of Economics,
independent researcher*

Annotation. The article examines the role of economic entities providing services in agricultural activities, as well as theoretical and methodological foundations of accounting, features of accounting entities providing services in agricultural activities.

Keywords: agroservice, business entity, accounting, management accounting, infrastructure, accounting policy, cost accounting.

Kirish. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligining tezkor rivojlanishi va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash imkonini beruvchi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga mexanizatsiya va servis xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalgamoshirilmoxda.

2016-yilda qishloq xo'jalik texnikasini ishlab chiqarish, yetkazib berish va servis xizmati ko'rsatish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga mexanizatsiya xizmatlari ko'rsatishning yagona o'zaro bog'langan tizimining yaratilishi qishloq xo'jaligi korxonalari, "O'zagroservis" AJ tashkilotlarining servis korxonalari va mashinatraktor parklarini qayta jihozlashni ta'minlash imkonini berdi.

Shu bilan birga, mazkur sohada o'tkazilgan tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga mexanizatsiya va servis xizmatlarini ko'rsatish tizimida qator tizimli muammolar saqlanib qolayotganligini ko'rsatdi[1].

Shularni hisobga olganda, qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish, tumanlarda aniq mahsulot turini yetishtirishga ixtisoslashtirish, qishloq xo'jaligida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish va sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalgamoshirish kabi dolzab masalar hali o'z echimini etarli darajada topmagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqtisodchi olimlar Ibragimov A., Ochilov I., Qo'ziev I., N. Rizaevlarning fikriga ko'ra: xalqaro biznes tili sifatida buxgalteriya hisobi davlat qonunlarini bajarilishini kafolatlashi, tadbirkorlikni rivojlantirilishiga mulkni saqlash va ko'payishiga xizmat qilishi, manfaatdorlar tomonidan muhim iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda zarur bo'ladigan to'liq va ishonarli axborotlarni o'z vaqtida yetkazib berishi kerak.[9]

Sh.T. Ergasheva, G'.B. Quvvatov, R.A. Manna povaniq fikrlariga ko'ra: ma'lumki, buxgalteriya hisobi hisob davri bilan bog'liq barcha jarayonlar, ya'ni buxgalteriya hisobiga oid ma'lumotlarni dastlabki tan olish, zarur hollarda ularni birlamchi hujjatlarda rasmiylashtirish, ma'lumotlarni hisobvaraqlar va hisob restrlarida qayd etish va moliyaviy hisobot tayyorlash bosqichlarini qamrab oladi. Albatta, foydalanuvchiga moliyaviy hisobot taqdim etiladi. Shu bois, MHXSQ, asosan moliyaviy hisobotga nisbatan talablar belgilaydi. Lekin bundan standartlar birlamchi hujjatlar, hisobvaraqlar va hisob restrlarini inkor qiladi deb xulosa qilish noto'g'ri[10].

K.B. Urozov, M.E. Po'latovning ta'riflashicha, buxgalteriya hisobining bosh maqsadi iqtisodiyotning quyi bo'g'ini tashkil qiluvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati, faoliyat natijalari, mulki, mulkni tashkil topish manbalari to'g'risidagi axborotlarni

qayd etish, hujjatlashtirish, guruhlash, jamlash hamda bu axborotlarni tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchi foydalanuvchilarga yetkazish hisoblanadi.

Abduvaxidov F.T., Qo'ziyev I.N., Sh.X. Dadabayevlarning fikrlariga ko'ra: buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi to'liq va ishonarli axborotlarni shakllantirish, ichki va tashqi foydalanuvchilarni u bilan ta'minlash, shuningdek, boshqaruv va moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun axborotlardan samarali foydalanishdir [12].

Buxgalteriya hisobi amaliyotida xarajatlar hisobi nazariyasi va amaliyotining shakllanishi va rivojlanishi bir necha asrlarga borib taqaladi.

Turli davrlarda iqtisodiy, huquqiy, texnologik, texnik va boshqa tendentsiyalar ta'sirida buxgalteriya hisobining mazmuni xarajatlar haqidagi fikrlar va ularni hisobga olishga yondashuvlar o'zgardi.

Xarajatlarni hisobga olish nazariyasi va amaliyoti evolyutsiyasi haqida to'liqroq tushunchani shakllantirish uchun ushbu masalaga ushbu sohanning quyidagi yo'nalishlarda rivojlanishini ko'rib chiqish orqali yondashish kerak:

- xarajatlar hisobi tushunchalarining genezisi va evolyutsiyasi;
- xarajatlar hisobi schyotlarining evolyutsiyasi;
- sintetik va analitik xarajatlar hisobining evolyutsiyasi.

Hozirgi zamonda olimlari ta'limotlarida xo'jalik yurituvchi subyektni buxgalteriya hisobi va analitik ta'minotining umumiyligi tizimida xarajatlar hisobi quyisi tizimining o'rnini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Xarajatlarni hisobga olish quyisi tizimi haqida gapirganda, ba'zi olimlar uni boshqaruv hisobi kontekstida ko'rib chiqadilar.

Tarixan xarajatlar hisobi tashkilotlarning ishlab chiqarish hisobining asosi hisoblangan. Ch.T.Xorngren, J.Foster boshqaruv hisobini ishlab chiqarish bilan taqqoslab, oxirisini xarajatlar hisobi deb atab, ularni "amalda bir-biridan farq qilib bo'lmaydi"[7]. V.E. Kerimov, T.P. Karpova turli mamlakatlarda asta-sekin «ishlab chiqarish hisobi» atamasi «Boshqaruv hisobi» bilan almashtirilganligini ta'kidlaydilar[14]. K. Druri xarajatlar hisobi va boshqaruv hisobini ajratib ko'rsatadi, "xarajat hisobi tovar-moddiy zaxiralar tannarxini baholashda tannarx va xarajatlar hisobi bilan bog'liq bo'lib, tashqi tuzilmalar bo'yicha hisobotga muvofiqligini ta'minlash va ichki bo'limlar uchun foydani o'lchash uchun amalgamoshiriladigan maqsadlar.

Boshqaruv hisobi mo'ljallangan menejerlar qarorlar qabul qilishlari, rejalashtirishlari, faoliyatini nazorat qilishlari va baholashlari uchun zarur bo'lgan tegishli ma'lumotlarni taqdim etish" [4-5].

Shunga o'xshash fikrni M.A. Vaxrushina shuningdek, ilgari ishlab chiqarish hisobining maqsadi "ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot birligiga

tushadigan daromadni aniqlash” ekanligini ta’kidlaydi va hozirgi vaqtida “ishlab chiqarish buxgalteriya hisobi ishlab chiqarish xarajatlarini monitoring qilish, oldingi davrlar, hisob-kitoblar yoki prognozlar bilan taqqoslaganda ortiqcha xarajat sabablarini tahlil qilish, shuningdek, mumkin bo’lgan tejash zaxiralarini aniqlash uchun mo’ljallangan” [16].

E.I. Kostyukova, R.I. Galilova ishlab chiqarish buxgalteriya hisobini boshqaruv hisobining bir qismi deb hisoblaydilar, “shu jumladan, birinchi navbatda, xarajatlar hisobi va nazorati, tayyor mahsulot ishlab chiqarish hisobi, ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishdan olingan daromadlarni hisobga olish va hisobga olish”[5].

Olimlarning tadqiqotlarini xo’jalik yurituvchi subyektni boshqarish tizimida xarajatlar hisobi, boshqaruv hisobining o’rnini bilan bog’liq holda tahlil qilib, axborotni shakllantirishni ta’minlovchi buxgalteriya hisobi tizimining elementi sifatida qayd etish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Buxgalteriya hisobini tartibga solish bo’yicha mavjud bo’lgan ilmiy tadqiqotlarni o’rganish, xarajartlarni shakllanishini qiyosiy solishtirish, statistik ma’lumotlarni o’rga-

nish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalilanilgan.

Tahlili va natijalar. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga Murojaatnomasiga nutqida “...biz qishloq xo’jaligida islohotlarni qat’iy davom ettiramiz. Yer munosabatlari bo’yicha katta ishlarni boshlab, shu yilning o’zida 100 ming hektar ekin erini aholiga dehqonchilik qilish uchun bo’lib berdi. Buning hisobidan 1,5 million tonna qo’shimcha oziq-ovqat yetishtirildi. Eng asosiysi, qishloqlarda 400 mingta yangi dehqon xo’jaligi tashkil qilindi, 1 million 200 mingdan ziyod odamlarimiz band bo’lib, daromad olyapti” deb ta’kidladlar [2]. Statistik ma’lumotlarga nazar tashlaydigan bo’lsak, qishloq xo’jaligining asosiy ko’rsatkichlari 2010-2020-yillar uchun ma’lumotlar quyida respublika bo’yicha qishloq xo’jaligi ekinlari ekin maydoni, ming hektar, qishloq xo’jaligi mahsuloti, mlrd. so’m, qishloq xo’jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o’sish sur’ati, o’tgan yilga nisbatan foizda haqida ma’lumot keltiramiz (1-jadval).

1-jadval

Qishloq xo’jaligining asosiy ko’rsatkichlari (2021-yil uchun dastlabki ma’lumot) [5]

Ko’rsatkichlar	2012-yil	2013-yil	2014-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil
Qishloq xo’jaligi ekinlari ekin maydoni, ming hektar	3628,1	3658,6	3678,2	3694,2	3706,7	3474,5	3396,0	3309,4	3396,1	3260,7
Qishloq xo’jaligi mahsuloti, mlrd. so’m	55750,0	66435,3	81794,3	99604,6	115599,2	148199,3	187425,6	216283,1	250250,6	302524,9
shu jumladan:										
dehqonchilik	30592,3	36237,4	43194,3	55429,2	61755,1	83303,4	98406,4	111904,8	123858,8	151083,4
chorvachilik	25157,7	30197,9	38600,0	44175,4	53844,1	64895,9	89019,2	104378,3	126391,8	151441,5
Qishloq xo’jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o’sish sur’ati, o’tgan yilga nisbatan foizda	107,2	106,6	106,3	106,1	106,3	101,0	100,2	103,3	102,7	103,6
shu jumladan										
dehqonchilik	107,1	106,1	105,9	105,5	105,7	98,2	95,8	104,8	103,2	103,1
chorvachilik	107,4	107,3	106,7	106,9	107,0	104,1	105,7	101,6	102,1	104,1

Qishloq xo’jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biri yuqori darajada texnik jihozlanganlik, ilg’or texnologiyalar ni qo’llashga xizmat qiladigan, ya’ni innovatsion faoliyat rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy strategiyasining asosidir.

Hisob-kitoblarga ko’ra, iqtisodiy o’sishning 30% mehnat xarajatlarini oshishi, 40% mehnat unumdoorligini oshishi va 30 % esa innovatsion texnologiyalarni qo’llash hisobiga ta’milnar ekan.

Qishloq xo’jaligida innovatsion infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish jarayoni majmuaviy va ko’p jihatli xarakterga ega.

Uning shakllanishi va rivojlanishiga, birinchidan, makroiqtisodiy omillar ta’sir etadigan bo’lsa, ikkinchidan, infratuzilma elementlarining o’ziga xos xususiyatlariga bog’liq bo’ladi.

Respublikada fermer xo’jaliklarini tashkil etish bilan birga ularga xizmat ko’rsatuvchi infratuzilma obyektlarini hukumatimiz tomonidan qabul qilingan bir qator huquqiy-me’yoriy hujjatlar asosida tashkil etildi va rivojlantirildi. Xususan, hozirgi kunda MMTP, SIU mineral o’g’it bilan ta’minlash, YOMM bilan shaxobchalar faoliyat ko’rsatib kelmoqda va boshqa infratuzilma obyektlari faoliyat ko’rsatib kelmoqda (2-jadval) [6].

**O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan infratuzilma obyektlari
to'g'risida ma'lumot, (2017 yil)**

№	Hududlar	Infratuzilma obyektlari, dona				
		MMTP	SIU	YoMM sotish shaxobchalar	Mineral o'g'it sotish shaxobchalar	Zooveterinariya xizmati shaxobchalar
1.	Qoraqalpog'iston	133	126	74	102	129
2.	Andijon	185	105	64	59	151
3.	Buxoro	55	131	60	71	215
4.	Jizzax	2	116	56	7	147
5.	Qashqadaryo	169	152	95	90	279
6.	Navoiy	3	57	47	18	62
7.	Namangan	113	134	56	34	142
8.	Samarqand	195	40	109	86	434
9.	Surxondaryo	44	152	65	51	219
10.	Sirdaryo	9	91	66	46	68
11.	Toshkent	178	148	65	83	194
12.	Farg'ona	155	122	62	61	142
13.	Xorazm	38	113	79	92	180
Respublika bo'yicha jami		1279	1487	898	800	2362

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev qishloq xo'jaligi xodimlari kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagি nutqida quydagilarni ta'kidlab o'tdilar: „hozirgi paytda mamlakatimizdagи 146 ming 295 ta qishloq xo'jaligi texnikasining 38 foizi allaqachon o'z umrini o'tab bo'lgan, ya'ni butunlay eskirgan”.

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlardan ma'lumki qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini yuritish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, bevosita umuman olinganda buxgalteriya hisobi va hisobotlariga ham aloqadordir.

Zero, qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi subyektlarda buxgalteriya hisobi yuritishi agroservis jarayonlarni hisobiga olinishi mahsulot (ish va xizmatlar)ni tannarxini, bajarilgan ishlар va ko'rsatilgan xizmatlarning narxlarini shakllantirish, qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish muddatini qisqartirish va boshqa hisob-kitoblar tashkil etish hamda yuritish shular jumlasidandir.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining isloh qilinishda avvalo quyidagi ustivor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

-buxgalteriya hisobining huquqiy asoslarini rivojlantirish;

-buxgalteriya hisobining milliy standartlarni muvofiqlashtirish va amaliyatga joriy etish;

-xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib BHMS qo'llash bo'yicha ustivor yo'nalish bo'yicha amaliy-uslubiy ko'rsatmalar va tavsiyalarni ishlab chiqish;

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida optimallashtirish jarayoni amaliyotga joriy etish;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib hisobi siyosatini to'g'ri ishlab chiqish va joriy qilish lozimdir.

- hisobni boshqarish tizimini qaytadan tashkil etish yo'li bilan yuqoridagi asosiy ustivor yo'nalishlarni muvafaqqiyatlari bajarlishida.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatmalar va tavsiylarning birontasi tushib qoldirilgudek bo'lsa, maqsadga erishib bo'lmaydi. Lekin buxgalteriya hisob tizimini bugungi talablar asosida isloh qilinishi, ya'niy yangi marralarga erishishda ushbu mavzuni dolzarb belgilaydi.

«Boshqaruv hisobi» fanining predmeti xaratlar va mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi, javobgarlik markazlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish, byudjetlashtirish, istiqbolda korxona taraqqiyotini belgilovchi loyihamar tahlili, segmentlar bo'yicha hisobot tuzish, samarali transfert baholari shakllantirishning nazariy-uslubiy hamda tashkiliy asoslarini yaritish hisoblanadi.[8]

Qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatini boshqarishda xaratjalar hisobi quyi tizimining asosiy roli uni takomillashtirishni taqozo etadi, bu quyidagi sabablarning natijasidir:

- tarmoqlarni rivojlantirish strategiyasi sohida davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlash zarurati;

– ko'p bosqichli boshqaruv jarayonini axborot bilan ta'minlash sifatini oshirish zarurati;

– subyektning iqtisodiy faoliyatiga tashqi xaratjalarini shakllantiruvchi omillarning ta'sirini baholash zarurati;

- raqobatchilar faoliyatini baholash zarurati;
- strategiyani amalga oshirish nuqtai nazari dan iqtisodiy faoliyatni baholash mexanizmini ishlab chiqish zarurati;
- xarajatlar to'g'risidagi axborotni shakllantirishning aniqligini oshirish zarurati va boshqalar.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtida yanada chuqurroq ilmiy tadqiqotlar uchun asos xarajatlarni tashkil etish va hisobga olish sohasidagi muammolarni hal qilish bilan bog'liq masalalar, qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi subyektlarni zamonaviy talablarga javob beradigan, ularning faoliyatining xususiyatlarini, shuningdek, kishloq xo'jaligiga xizmat kursatuvchi subyektlar faoliyat yuritayotgan subyektning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda boshqarish.

Shunday qilib, buxgalteriya hisobida xarajatlar hisobining genezisi va evolyutsiyasini o'rganish, qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi subyektni boshqarishning axborot maydonida xarajatlar hisobi quyi tizimining o'rnini aniqlash, xarajatlarni hisobga olish, muammoga olimlarning qiziqlishi ortib borayotganini ko'rish imkonini beradi.

Xarajatlarni hisobga olishning qozon usuli, xarajatlarni hisobga olish va uni dastlabki bosqicha ishlab chiqishda qo'llaniladigan, ularni kamaytirish uchun zaxiralarni aniqlashga imkon bermadi.

Shu munosabat bilan xarajatlar hisobi nazarasi va amaliyotining rivojlanishi xarajatlarga qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatini boshqarish omili sifatida qaralishiga olib keldi.

Hozirgi bosqichda xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini hisoblashga yondashuvlar me'yoriy-uslubiy tartibga solish hujjatlari talablarini bilan belgilanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning faoliyi, yangilarini rivojlanishiga va mavjudlarini takomillashtirish uchun dinamik o'zgaruvchan muhit sharoitlari, buxgalteriya hisobi va boshqaruvs usullarining tarqalishi biznes jarayonlariga, jumladan, xarajatlarni hisobga olish jarayoniga yangi talablarni qo'yadi. Shu bilan birga, bunday jarayon qaror qabul qilishni talab qiladigan bir qator muammolar bilan bog'liq. Xarajatlarni hisobga olishni tashkiliy ta'minlash va ushbu sohadagi bir qator quyidagi muammolar alohida rol o'ynaydi. Ilmiy adabiyotlarni ko'rib chiqish natijasida xo'jalik yurituvchi subyektni boshqarishning axborot maydonida xarajatlar hisobi quyi tizimining o'rnini aniqlash imkonini berdi (1-rasm).

Qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi subyektlar, ya'ni mashina-traktor parkida bajarilgan ish va xizmatlari bo'yicha buxgalteriya hisobi tizimi quyidagi asoslarga tayangan holda

ma'lumotlar turkumlashtiriladi va guruhlarga ajratiladi:

- iqtisodiy ma'lumotlarni qamrashning kengligi bo'yicha;
- buxgalteriya hisobining o'zaro bo'lim aloqalarning darajasi bo'yicha;
- tezkorlik, to'liqlik darajasi va mahsulotning tannarxi bo'yicha.

Shuningdek, mashina-traktor parklari agroservis jarayonlarida bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarining xarajatlari yoki tannarxini hisobga olar ekanmiz, agroservis bo'yicha shartnoma va dalolatnomalar asosida bajarilgan ish va xizmatlarining hajmi va obyektlariga qarab sarflangan xarajatlarning hisobini va tahlilini ifodalanishi muhimdir.

Demak, mashina-traktor parki (MTP) bajarilgan ish va xizmatlarning xarajatini umumlashtiruvchi ko'rsatkich bu tannarxdir.


Bajarilgan ish va xizmatlar hisobotida MTP agroservisning tannarxini aks ettiradi, ish va xizmatining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichini aks ettiradi.

Bajarilgan ish va xizmatlar bo'yicha xarajatlari to'g'risida to'la-to'kis ma'lumotlarga ega bo'lmasdan, MTPda bajarilgan ish va xizmatlarini iqtisodiy samarali boshqarish aslo mumkin emas. Chunki bajarilgan ish va xizmatlar shartnoma vazifalarini bajarish asosan shartnoma bahosi bo'yicha bo'lishi, shartnomaviy foyda va daromadni ortishini ta'minlaydi.

MTPda bajarilgan ish va xizmatlar xarajatlarni hisobga olish maqsadida xarajatlarni turkumlashtirish, transfert bahoni belgilash usuli va uni o'rnaish hamda hisobga olish kerak.

Bajarilgan ish va xizmatlarini tannarxini tahlil qilishda jami haqiqiy tannarx bo'yicha shartnomasing bajarilishiga umumiy baho berish bilan boshlanadi. Tahlil qilish jarayonida ish va xizmatlarning hajmi taqqoslanadi, hamda ish xizmatning haqiqiy tannarxi shartnoma tannarxi hamda o'tgan yilgi darajasi bilan taqqoslanadi, shu jumladan haqiqiy tannarxi esa faqat shartnomada ko'rsatilgan tannarxi bilan qiyoslanadi.

Fikrimizcha, agroservis xizmatlari ko'rsatishda bo'ladigan hisob-kitob jarayonidagi munosabatlarni tezlashtiradi va agroservis to'lovlar o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi. Bundan tashqari kelib tushgan mablag'larni MTP buxgalteriyasida hisobga olinishida ularning schyotlarda hisob siyosatiga ko'ra hamda moliyaviy natija va boshqa to'lovlarini amalga oshirishda hisob ishlarini soddalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ta'kidlash joizki, agroservis xizmatlarga haq to'lanishi, u moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlarntirilsa, shuningdek, boshqaruvs qarorlari to'g'ri ma'noda qabul qilinib ularning manfaatlari uyg'unlashib boradi.



1- rasm. Xarajatlarni hisobga olish quyisi tizimining xo'jalik yurituvchi subyektni

2- boshqarishning axborot maydonidagi o'rni

Manba: mualif tomonidan ishlab chiqildi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, respublikamiz agrar sohasini barqarorligi ta'minlashda qishloq xo'jaligi faoliyatida xizmat ko'sratuvchi subyektlarning buxgalteriya hisobini isloh qilinishi bugungi kun asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi faoliyatida xizmat ko'sratuvchi subyektlarning buxgalteriya hisobidan foydalanuvchilarning imkoniyatlarini kengaytiradi, buxgalteriya hisobining sifati va samaradorligini

oshiradi hamda buxgalteriya xizmatlarining har xil turlarini integratsiyalashda zamonaviy innovatsion yondashuvlarni shakllantiradi.

Tadqiqot natijasida quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqdik:

Birinchidan, qishloq xo'jaligi faoliyatida xizmat ko'sratuvchi subyektlarda buxgalteriya hisobida xarajatlar hisobiga yondashuvlarning genezisi va evolyutsiyasi o'rganiladi. Xarajatlarni hisobga olish

tizimining xorijiy va mahalliy nazariyasi va amaliyotidagi rivojlanishini tarixiy tahlil qilish turli davrlarda uning rivojlanishiga yordam bergan omillarni aniqlash imkonini berdi.

Bundan tashqari, xarajatlarni hisobga olish quyi tizimining boshqaruv tizimidagi o'rni aniqlanadi. Bu qishloq xo'jaligi faoliyatida xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatini boshqarishning buxgalteriya hisobi va tahliliy ta'minotini shakllantirish, shuningdek, xarajatlarni boshqarish jarayonida xarajatlarni hisobining o'rni va ahamiyatini aniqlash imkonini berdi.

Ikkinchidan, xarajatlarni hisobga olishni me'yoriy va uslubiy tartibga solishning xususiyatlari ochib berildi. Tadqiqot davomida xarajatlarni hisobga olishni me'yoriy-uslubiy ta'minlash tizimidagi muammolar aniqlandi, hamda xarajatlarni hisobga olish maqsadida biznes jarayonlarini, javobgarlik markazlarini va xarajatlarni joylarini aniqlash, mashina-traktor parki korxonalarini faoliyatning mavsumiyligi omilini hisobga olgan holda va tashqi va ichki foydalanuvchilar uchun ma'lumotlarni oshkor qilgan holda segment hisobotini ishlab chiqish, segment hisobotlarini mashina-traktor parki korxonalarini faoliyatiga moslashtirish. Bu esa buxgalteriya hisobi axboroti foydalanuvchilarini (rahbarlar, boshqaruvchilar, menejerlar) o'z vaqtida kerakli qarorlarni qabul qilishlariga imkoniyat yaratadi va ish samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi faoliyatida xizmat ko'rsatuvchi subyektlarda xarajatlarni hisobga olish bo'yicha uslubiy tavsiyalar va ko'rsatmalar-

ni ko'rib chiqish qishloq xo'jaligi iqtisodiyot tarmoqlari, shu jumladan mavsumiy xususiyatga ega agroservis xarajatlarni hisobi yetarli darajada tartibga solinmaganligini ko'rsatdi ishlab chiqarishning ayrim agroservis mavsumiy ish va ko'rsatilgan xarajatlarni hisobga olishni metodik ta'minlashni belgilaydi.

Uchinchidan, ishlab chiqarishning mavsumiy qishloq xo'jaligi faoliyatida xizmat ko'rsatuvchi subyektlarida segmentlar bo'yicha axborotni shakllantirish va taqdim etishning hozirgi holati o'rganildi. Moliyaviy hisobotlarda segment ko'rsatkichlarini jamlash bilan bog'liq kamchiliklar aniqlandi, bu tashqi foydalanuvchilar tomonidan mashina-traktor park o'ziga xosligini segmentlar bo'yicha hisobotning axborot mazmunini oshirishga qaratilgan yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi faoliyatida, jumladan, mashina-traktor parkining segmentlar bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirish va taqdim etish uslubi sifatida aniqlandi.

Umumiy xulosa qilib aytganimizda, qishloq xo'jaligi faoliyatida xizmat ko'rsatuvchi subyektlarida buxgalteriya hisobida xarajatlarni hisobini takomillashuvi, boshqaruv jarayonini axborot bilan ta'minlash sifatini yaxshilanishi. strategik yo'naliш nuqtai nazaridan xarajatlarni hisobli buxgalteriya hisobining obyektlari hisoblanadi, boshqaruv hisobi va moliyaviy hisobotni tartibga solishdagi zarur axborotni hosil qilish uchun foydalanish tartibini belgilab beradi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga mexanizatsiya va servis xizmatlarini ko'rsatish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 29.05.2018-yildagi PQ-3751-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 20.12.2022-y.
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasining hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlangan. www.stat.uz
4. Хамраева С.Н. Қишлоқ ҳўжалиги инфратузилмасини инновацион ривожлантиришнинг иктисодий самараорликка таъсири №4 (10). 2017 Journal of "Irrigation and melioration" 56-60 бет.
5. Ergasheva SH.T., Quvvatov G'B., Mannapova R.A. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari [Matn]: o'quv qo'llanma. – Т.: Ma'naviyat, 2021. – 288 b. 13-бет.
6. Урозов К.Б., Пўллатов М.Э. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. – Т.: «Иннонатсион ривожланиши нашриёт- матбаа уйи», 2020, 558 бет. 11-13-бетлар.
7. Abduvaxidov F.T., Qo'ziyev I.N., Dadabayev Sh.X. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – Т.: TDIU, 2019. – 403 b. 16- бет
8. Хорнгрен, Ч. Т. Бухгалтерский учет: управленический аспект : пер. с англ. / Ч. Т. Хорнгрен, Дж. Фостер; Под ред. Я. В. Соколова. – М. : Финансы и статистика, 2000. – 416 с.-8с
9. Карпова Т.П. Управленический учет [Текст] : учебник для вузов / Т. П. Карпова. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва : ЮНИТИ-ДАНА, 2012. – 351 с.
10. Друри К. Управленический и производственный учет. Вводный курс [Текст] : учебник для студентов вузов / К. Друри. – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2015. – 735 с. 20-с
11. Вахрушина М.А. Бухгалтерский управленический учет : учеб. для студентов вузов, обучающихся по экон. специальностям / М.А. Вахрушина. – 6-е изд., испр. – М.: Омега-Л, 2007. – 570 с. 12с.
12. Костюкова, Е. И. Организационно-методическое обеспечение управленческого учета затрат и калькулирования себестоимости продукции в рыбоводческих организаций [Текст] : монография / Е. И. Костюкова, Р. И. Галилова. – Ставрополь : АГРУС Ставропольского гос. аграрного ун-та, 2012. – 156 с. 16с.
13. Xasanov B.A., Xoшимов A.A. Boşqaruv ҳисоби. Darslik. – T.: «Шарқ» MNK. 2005.-255 б. 20-бет.